

Jahon tillari universiteti qoshidagi 2-akademik litseyning ilk bitiruvchisi Rizvonoy Nizomovaning o'ziga bo'lgan ishonchi bizni quvontirdi

Olovuldir ORIPOV olgan surat

SIZGA SOVG'AMIZ BOR!

Adib Omon Muxtor bobongiz tahririyatimiz buyurtmasiga binoan «Ochilgan parda» qissasini yozib tugatdilar. Bu qiziqarli asar nima haqida, deysizmi? Bunga qiziqayotgan bo'lsangiz, gazetamizni kuzatib boring. Yaqin kunlarda shu qissa bilan tanishish sharafiga muyassar bo'lasiz.

QUYOSHI YORDAMIDA UCHDI


Bolalar!
Siz ixtirolar bilan qiziqasiz. Quyosh batareyalari bilan ishlaydigan dastlabki samolyot sinovdan o'tdi. U Shvetsiyaning Payeri shaharchasidan havoga ko'tarilib, 8,5 ming kilometr balandlikda 24 soat parvoz qildi. Uni birgina uchuvchi boshqardi.

MULOQOTGA CHORLAYMIZ

Aziz bolajonlar, eshitmadim demanglar, ta'il kunlaringizda Sizni zeriktirib qo'ymaslik maqsadida yana bir ezgu ishga qo'l urdik. Xalq ta'limi vazirligi xodimlari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati vakillari, «Bolalar sporti», «Sog'lom avlod uchun» jamg'armalari mutasaddilari, noshirlar, taniqli bolalar adiblari, shoirlari, qo'ying-chi, Sizing kelajagingiz uchun qayg'uradigan insonlar bilan gazeta orqali bevosita muloqot o'tkazishni rejalashtirdik.

Bu xayrli ishni boshlab berishni taniqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev o'z zimmalariga oldilar. Shunday qilib, 26-iyul kuni soat 10.00 dan tahririyatimizga qo'ng'iroq qilishingiz va o'zingizni qiziqtirgan barcha savollar bilan sevimli shoiringizga murojaat qilishingiz mumkin.

Muloqot uchun telefon:
(99871) 244-63-08



DONOLAR DEYDIKI...

**Bolalar, buyuk
insonlarning dono
so'zlarini o'qib, o'zingiz
xulosa chiqaring!**

**Abulqosim
ZAMAXSHARIY:**
«Takabburni qanchalik
xursandlig-u shodlikka
tomon aylantirishga urin-
sang ham, asli loydir va
uning bir kun tuproqqa
qaytishi aniq».

A. BERGSON:
«Odamlar ikki
guruhga: olomon va
elitaga bo'linadi. Olomon
yuksak axloqiy sifatlarga
ega emas. Qahramonlik,
oliyanoblik kabi sifatlarni
faqat saralangan elitaga
xos».

Ja'far SODIQ:
«Takabburlik va dilozorlik
kishiga xor-u zorlik
keltiradi».

Jaloliddin RUMIY:
«Qayg'u-alamlar o'z ustingga
hujum etsalar, bunga o'z
adabsizliging sababchidir».

«Hunarni asrabon netgumdur oxir...»

**Hazrat Alisher Navoiy bobon-
gning ushbu mashhur satrini behu-
da tilga olmadik. Inson – bu dunyo-
ning sohibi, bog'boni. Umri vaqtin-
cha. Bu ham behuda emas. Kapalak
bir kun yashasa-da, insonga zavq
berib ketadi. Guldan gulga qo'nib
yurgan oppoq kapalakni ko'rib
qolsangiz: «Ana kapalak», deb yu-
borasiz, ba'zilar uni tutib olib, quyosh
nurlari o'tib turgan nozik qanotcha-
larini, undagi ajib qora xolchalarni,
antennaga o'xshash juft mo'ylovini
zavq bilan kuzatadi. Ehtimol, siz ham
ayni damda oromgoh qo'nyida,
dalada yoki o'z hovlingizda kapalak-
larni quvib yurgan chiqarsiz.**

Yoz zavqi o'zgacha: jannatmisol
yurtning tiniq suvlari, soya-salqin
bog'lari, siz mazza qilib
cho'milayotgan ko'llari,
osmoni, oltin bug'doyzori,
yam-yashil paxtazori – bari
go'zal. Bunday bebaho diyorda
miriqib hordiq chiqarish mumkin.
Lekin yoz ham kapalak umridak
qisqa: bor-yo'g'i uch oy, xolos.

Men bilgan Sarvar, Olim, Nargiza
va Azamatlar allaqachon yangi o'quv
yiliga tayyorgarlikni boshlab yuborishdi.
Siz-chi? Siz ham maktabni sog'indingiz-
mi? Sog'inganingiz tayin. Sog'inmaganlar
ham bor, deyishingiz mumkin. Bu – hayot!
Insondan hamma narsani kutsa bo'ladi.
Lekin o'sha sog'inmaganlar kelajakda,
albatta, afsuslanadilar.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtid-
dorli yoshlari, mehnatsevar bolalari ja-
honni qoyil qilmoqdalar. Turli musoba-
qalarda g'oliblar sharafiga ko'tarilayot-
gan bayroqlar yonida Vatanimizning
go'zal bayrog'ini ko'rib, cheksiz qu-
vonchga to'lamiz. Iqtidorli yoshlarga
havas qilib, ularga ergashmoqchi bo'l-
ganlarni ko'rganimizda y...a quvonamiz.

Tez-tez bunday voqealarning guvohi
bo'lib turamiz.

Bir maktabdoshim bo'lardi. Otasidan
ham, onasidan ham yashirib pul olar,
o'ziga o'xshagan uch-to'rt hamtovog'i
bilan qomini to'yg'azish, kiyinish va maq-
tanish bilan oltin daqiqalarini havoga
sovurardi. Kuni kecha u qidirib keldi,

yonida o'ziga o'xshagan bolakay. Nevarasi
ekan. – Shuni senga shogirdlikka olib
keldim, – dedi u. So'ng, ota-onasi o'tib
ketgach, ko'zi moshday ochilganini aytib:
– Hozir qayerga borsam diplom so'rashadi,
o'qisam bo'larkan, o'qiganimda, bunday
bo'lmasdim. Nevaramga aytayapman
o'qigin deb. O'qisang, qiynalmaysan! –
dedi bolakayning boshini silab.

Nevarasining ismi Farrux ekan. U
bilan ancha suhbatlashdik. Oltinchi sinfga
o'tibdi. Lekin hali kelajakda kim bo'lish
haqida bosh qotirib ko'rmagan ekan.
Rejasiz odam – natijasiz odam. Har bir

anglab uyalayotgan edi, shekilli. Biz odob-
axloqdan so'ng kitoblar haqida ham
gaplashdik, men unga bir nechta kitoblar
sovg'a qildim, xursand bo'lib, rahmat,
dedi. Bobosiga qarash, qizarib turibdi.
Maktabdoshim: «Bu yerdan chiqqan
zahoti unga kitob olib bermoqchiman»,
dedi. Bundan men ham quvondim.

So'ng, Farrux bilan umr fasllari
haqida ham suhbatlashdik.

Alisher Navoiy bobomiz «Hayratul-
abror» dostonida umrning har bir fursati
bir ishga mo'ljallanganini quyidagicha
tasvirlaydi:

«O'n yoshgacha odam oyog'i
boyloq, g'aftlarda bo'ladi, yigirma-
gacha umr bilimsizlik, mastlik (bu
o'rinda shodlik ma'nosida) bilan
o'tadi; o'tiz bilan qirqning orasi
xursandchilik davridir.

Ellikka kirganda kishi
taraqiy topmasa,
oltmishga kirganda uning
ishi tanazzuldan iborat...»

Farrux bobosiga qaradi:
– Mengayam Navoiy
boboning kitoblaridan olib
bering!

Bobosi minnatdor bo'lib, uni
bag'riga bosdi:

– Mirzo Ulug'bekdek olim
bo'ling, bolam!

Men unga sinchkov qarab:

– Nimanidir sog'indingizmi? – deb
so'radim.

Bola-da, ko'nglidagini shoshib aytdi:

– Maktabimni sog'indim.

– Oltinchi sinfga besh baholarga
o'qiyisizmi?

– Ha, faqat beshga. Bobomga so'z
beraman. Kelajakda diplom keltirib
ko'rsataman bobomga!

Biz xursand holda xayrlashdik. Besh
yildan so'ng u bilan suhbatlashish nasib
etishini niyat qildim. Men ishonaman,
Farrux, albatta so'zining ustidan
chiqadi. Buning uchun hamma shart-
sharoitlar mavjud: yangi zamonaviy
maktab, texnika, o'quv qurollari...
Faqat mehnatdan qochmasak,
bas!

**Sevara HAYITOVA,
Maftuna MA'QULBEKOVA**

inson kamida besh yillik reja tuzib olishi
shart. Masalan, Farrux besh yillik reja
tuzsa, kelajakda fazogir bo'laman, to'rt
yildan so'ng maktabni a'lo bitirib, falon
akademik litseyga kiraman, bu orada
odobimni yaxshilab, hayot tajribamni
oshirib boraman, falon ustozning etagini
tutib, yana besh yillik reja tuzib, falon oliy
o'quv yurtiga o'qishga kiraman va hokazo.

Yashash – hunar, aql bilan tadbir
tuziladi, qo'l-oyoq harakati bilan amalga
oshiriladi. Yaxshi ishingizni ko'rganlar
odobli bola ekan, deyishadi. Odob
yoshlikdan boshlanadi va u sizni yuksak
ma'naviy kamolot cho'qqisi tomon
boshlaydi. Chunki odob va aql – ikkisi
bir-biriga bog'liq narsa. Dono xalqimizda:
«Odob aqlli kishi uchun ulug'lik va
fazilatdir», degan maqul bor. Ma'nosini
bir chaqib ko'ring-a!

Farrux menga ma'noli qaradi, u
nimanidir tushungan va qaysi bir xatosini

Kim ham hayvonot olamiga qiziq-
maydi, deysiz?! Har bir bola
yoshligidanoq u yoki bu jonivorni parva-
rirlashga qiziqadi. Kimgadir ota-onasi
kuchukcha olib bersa, yana
kimgadir baliqlar
sovg'a qilgan.
Jonivorlar va qushlar

U GO'ZAL OLAM

bolalar qalbida tabiatga mehr uyg'otadi.
Shahrimizning so'lim go'shalaridan biri
G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va
istirahat bog'ining hayvonot burchagida
ham oq kabutar, qu-
yon, toshbaqa, tip-
ratan kabi
bolalar
qiziqadigan
hayvon turlari
mavjud. 7 yoshli
Farrux Azizovning ayti-
shicha, bog' uning sevimli maskani
bo'lib, o'zining ham bitta quyoni va
to'tiqushi bor ekan.

Aziz o'quvchilar, sizni ham hayvonot
bog'imizga taklif qilamiz. Chunki
hayvonot dunyosi juda go'zal olam.

**Sherzod TOSHXONOV,
jamoatchi muxbir**

Farruxjon bu yil Samarqand viloyati,
Narpay tumanidagi 68-ixtisoslashgan
umumta'lim maktabining 6-sinfini
a'lo baholarga tugatdi.

Ushbu bilim
maskani
faoliyatidan nafa-
qat o'quv-
chilar, bal-
ki ularning
ota-onalari ham
mamnun. Fanlarni o'zlashtirish bo'yicha
joriy o'quv yili yakunida tumanda oldingi
o'rnlarni egallagan ta'lim maskanida
Gulnora Niyozova, Zarnigor Karimova,
Sardor Qurbanov, Alp Ergashev, Behro'z
Usmonov, Shahnoza Sharipova, Ulug'-
bek Mustafoyev, Go'zal Hazratova, Ha-
yotxon Siddiqova kabi iqtidorli o'quvchilar



ko'pchilikni tashkil etadi.
– Yozgi ta'tilda o'rgangan kuy va
qo'shiqlarimni takrorlab, «Shum bola»,
«Sariq devni minib», «Shirin qovunlar
mamlakati» kabi qiziqarli kitoblarni
o'qiyapman, – deydi Farruxjon
Ubaydullayev.

**Rayhona ERGASHEVA,
Samarqand viloyati**

KITOBLAR O'QIDIM


UCHINCHI BETGA MAKTUB

Bu qanday maktub ekan, deya qiziqayotgandirsiz? Qani, yaxshilab o'tirib oling-chi, bu haqda sizga batafsil ma'lumot beramiz. 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar diqqatiga: endi gazetamizning 3-sahifasi Sizning sahifangiz bo'ladi. Unda tengdoshlaringiz ijodidan namunalar, qiziqarli hayotiy voqea va hikoyalar, she'rlar o'qishingiz mumkin. Shuningdek, fotosuratigizni ham maktub ichida bizga yo'llang. Eng qiziqarli surat egasini kutilmagan sovg'a kutmoqda. Iye, chaqqon bolalar allaqachon maktub yozishga kirishib ketibdilar-ku! Uni xatjildga solib, bizga yo'llash qolibdi. Demak, maktublaringizni kutib qolamiz.



QULOQQA

Ta'tilga chiqishimizdan oldin ustozimiz Lola opa Siddiqova bo'sh vaqtimizda ko'proq kitob o'qishimizni maslahat berdilar.



AYTILGAN GAP

Kitob o'qishni juda yaxshi ko'rganim uchun qaysi kitobni o'qisam ekan, deya boshim qotdi. 5-sinf adabiyot kitobini o'qib bo'lganimni sezgan oyijonim Ulug'bek akamning quloqlariga nimadir deb shivirlaganlarini ko'rib qoldim. Akamdan oyim nima deganlari haqida so'rasam, kechgacha sabr qil, bilib olasan, deya javob berdilar.

Bog'imizdagi o'rik, xurmo, anjir tagini yumshatib, ularni sug'orgunimcha qorong'i tushib bo'ldi. Lekin oyimning akamga shivirlab aytgan gaplari hecham yodimdan chiqmadi. Ko'zlarimni darvozadan uzmay, akamni poylay

boshladim. Bir payt akam darvozani ochib, qo'llarida bir quchoq kitob bilan kirib keldilar va:



– Senga 5-sinf adabiyot kitobini o'qishga hali erta. Mana, oyim qulog'imga aytgan «gap»lari, bularning hammasini senga olib keldim, – dedilar.

Akamga rahmat deb, oyijonimning oldirlariga yugurib bordim-da:

– Oyijon, endi akamning quloqlariga tez-tez gapirib turing, bu menga juda yoqdi, – deb ularni quchoqlab oldim.

Elyorbek ABDURAHMONOV,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi

25-maktabning 4-sinf o'quvchisi

Bolajonlar, bugun sizlarni koinotga sayohatga chorlamoqchimiz. Chekchegarasi yo'q koinotda hayot borligi to'la isbotlanmagan bo'lsa-da, noma'lum uchar jismlar haqida ko'p eshugtansiz, shunday emasmi? Sayohatimiz davomida ularga duch kelib qolsak, hecham cho'chimang, aksincha, ular bilan yaqindan tanishib olishga harakat qiling.

Ana u sayyoraning nomini bilasizmi?

To'g'ri topdingiz, bu Merkuriy.

Koinotda jami sak-kizta say-yora bo'lib, ular Merku-riy, Venera, Yer, Mars, Yu-piter, Saturn, Uran va Neptun

deya nomlanadi. Bu sayyoralardan tashqari koinotda meteoridlar, kometalar hamda asteroidlar ham mavjud.

Qarang, yonimizdan o'tib ketayotgan jismini yerdan ko'rganingizda, «Uchar yulduz», deysiz-a? Koinotda yulduzlar son-sanoqsizligi siz uchun yangilik emas. Bilasizmi, aslida Quyosh ham yulduzlardan

biri hisoblanadi. Quyosh olam paydo bo'lganidan so'ng 10 milliard yil o'tgach vujudga kelgan. U vodorod va geliy gazlaridan tashkil topgan ulkan olovli shardir. Har tong bizni iliq nurlari bilan siylovchi Quyosh yuzasidagi harorat 6 ming daraja atrofida bo'ladi. Bunday haroratda yerdagi biz bilgan barcha narsalar erib ketadi. Quyosh va Yer oralig'ida masofa katta bo'lgani uchun Quyosh nurlarining darajasi bizgacha kamayib yetib keladi.

Qarang-a, yurib-yurib Oyga ham yetib kelibmiz. Yer, Oy, Quyosh bir to'g'ri chiziq bo'ylab joylashgan vaqtida Quyosh tutilishi yuz beradi. Oy bir necha daqiqa davomida Quyosh nurlarini to'sib, Yerga soya tashlaydi. Ana shunda Quyosh to'liq yoki qisman tutilishi mumkin. To'liq tutilganda, tevarak-atrof birmuncha qorong'ilashadi va bu hol 7 daqiqa davom etadi. Bu juda noyob hodisa hisoblanadi. Quyoshning qisman tutilishi bir yilda ikki martadan besh martagacha sodir bo'ladi va biz odatda buni sezmaymiz.



Bugun sizlar bilan koinotga sayohat qilib, Quyosh, Oy hamda yulduzlar haqida tasavvurga ega bo'ldik. Sayohatimiz sizga yoqdimi? Yoqqan bo'lsa, navbatdagi sayohatimizga tayyorlanib turing. Ko'rishguncha xayr!

GULYUZ



Ertak

NO'XAT USTIDAGI MALIKA

Bor ekan, yo'q ekan, o'tgan zamonda bir shahzoda yashagan ekan. Uning uylanish vaqti yetibdi. U o'ziga xotinlikka hazilakam malikani emas, haqiqiy malikani olmoqchi bo'libdi.

U butun olamni aylanib chiqib, o'ziga qalqil topolmabdi. Malikalar-ku ko'p-a, lekin ular haqiqiy yoki yo'qmi, qanday qilib bilib bo'ladi?

Bizning shahzodamiz uyiga qup-quruq qaytdi va ko'p qayg'urdi, u haqiqiy malikaga juda-juda uylangisi kelar edi.

Bir kun kechqurun zo'r bo'ron turdi. Havo guldirab, chaqmoq chaqdi, yomg'ir chelakdan quyganday quydi.

Birdan birov saroy darvozasini qoqdi, qirol darvozani ochgani chiqdi.

Darvoza oldida bir malika turardi. Voy tovba, u kimga o'xshardi-ya! Suv uning sochidan va ko'ylagidan tufisiga qarab ariq bo'lib oqardi. Bechora qiz, hozirgina daryodan tortib chiqarilganday ivigan edi.

Shunga qaramasdan u o'zining haqiqiy malika ekanligidan dalolat berardi.

Qirolning qari xotini: «Xo'p, biz buni hozir sinab ko'ramiz», deb o'yladi, ammo hech kimga bir og'iz

so'z aytmadi. U yotoqxonaga kirdi, karavotdan barcha to'shaklarni va yostiqdarni olib tashladi-da, quruq taxtaning ustiga kichkina bir no'xatni qo'ydi. Undan keyin kichkina no'xat ustiga yigirmata to'shak, tag'in yigirmata g'oz patidan qilingan parto'shak to'shadi.

Malikani ana shu o'ringa yotqizdilar.

Ertalab undan:

– Yaxshi uxladingizmi? – deb so'radilar.

– Voy, juda yomon uxladim! – dedi malika. – Men butun tun mijja qoqmadim. Qanday o'rinda yotganimni Xudo biladi! Mayda toshlar ustida yotgandek bo'ldim. Butun badanim momataloq bo'lib ko'karib ketdi. Oh, men juda ham yomon uxladim!

Shunda hammalari uning chin malika ekaniga ishonidilar. Axir u kichkinagina no'xatni yigirmata to'shak va yigirmata parto'shaklar ustidan sezdi-ku! Asl malikagina shunday nozik bo'la oladi.

Shahzoda unga uylandi.

Kichkinagina no'xatni esa ajoyibxonaga yubordilar. Agar birov olmagan bo'lsa, u hozir ham o'sha yerda turibdi.

Qarang, dunyoda shunaqa ishlar ham bo'lar ekan!



O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti qoshidagi 2-sonli akademik litsey 2007-yilda o'z faoliyatini boshlagan. Ayni damda bu yerda 1051 nafar o'quvchi bilim olmoqda. Shulardan 282 nafari ilk qaldirg'ochlar sifatida bu yil o'qishni bitirib, tuzli oliygohlarga hujjat topshirdilar.

2010-yil - «Barkamol avlod yili»ga bag'ishlangan ijodiy ish loyihalari



joriy qilingan yangi loyihalarni hali boshqa joyda uchratmagandik.

Mazkur bilim dargohida birinchi bosqichning yarim yiligidagi o'quvchilar «Mening litseyim – mening faxrim» loyihasi asosida o'zlari bilim olayotgan dargoh haqidagi barcha fikrlarini o'rtaga tashlaydilar. O'quv yilining ikkinchi yarmida esa o'quvchilar «Mening qobiliyatim va kelgusi rejalarim» loyihasi asosida o'z iqtidorlarini namoyish etadilar. Xuddi shu yo'sinda bosqichma-bosqich loyihalar ham o'zgarib boradi.

O'quvchilar litseyini bitirish arafasida

o'zlari tanlagan, o'qishni davom ettirishni rejalashtirgan oliygohlar haqida ham ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Tengdoshlari, ota-onalari, ustozlari davrasida har bir o'quvchi mustaqil ravishda o'zi tayyorlagan taklifnomalar, tarqatma materiallar taqdimotini o'tkazadi. Bu esa o'quvchida o'ziga ishonch hissini yanada kuchayishiga xizmat qiladi. Bularni kuzatar ekanmiz, litsey talabalarining bir necha loyihalarda ishtirok etib, xalqaro diplomlarni qo'lga kiritganlari sirini ham anglagandek

bo'ldik.

Shu kuni ilk qaldirg'ochlaridan biri Rizvonoy Nizomovani ham uchratdik. U Jahon tillari universitetida o'qishni davom ettirish niyatida ekan.

– Kirish imtihonlari oldidan cho'chimayapsizmi? – deb so'raganimizda, u ishonch bilan eng yuqori ball to'plashini aytdi. Bu qizdagi shijoat va ishonchni ko'rib, ko'nglimiz yayradi. Litsey uning ilk qaldirg'ochlarining orzulari amalga oshishini juda-juda istadik.

Litseyda 38 ta kompyuter mavjud bo'lib, ularning barchasi ichki tarmoq va internetga ulangan. Litsey o'z veb-saytiga ega. Bu yerda: «Biz Sizni homiylikka emas, hamkorlikka taklif etamiz!» – degan shiorga amal qilinar ekan. Yaqinda biz ana shu maskanda bo'ldik, o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdik.

Umuman olganda, bunday shart-sharoit mamlakatimizdagi barcha o'quv maskanlarida muhayyo.

Xizmat taqozosi bilan yurtimizdagi ko'plab bilim maskanlarida bo'lamiz. U yerdagi ta'lim-tarbiya sohasidagi yangiliklar biz uchun hamisha qiziqarli. Lekin bu litseyda

KASBIM FAXRIMGA AYLANADI



«Ertangi kun yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlariga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi».

Bu borada maktab, litsey va kollejlarning o'zni beqiyosdir. Bugungi kunda bunday o'quv maskanlarida tahsil olayotgan iqtidorli, izlanuvchan yoshlar o'z oldilariga ezuq maqsadlar qo'yishgan.

Jahon tillari universiteti qoshidagi 2-sonli akademik litsey o'quvchilazining mulohazalari yuqotidagi fikrimiz isbotidit. Ular bilan suhbatlashat ekanmiz, hat bizining «Nasib bo'lsa, kasbim faxrimga aylanadi», deya ishonch bilan aytgan gaplaridan quvondik.

Nigora YUSUPOVA, 2-bosqich o'quvchisi:

– Sog'lom insongina chinakam baxtli bo'ladi. Sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir. Bu gap zamirida faqat jismonan sog'lomlikni emas, balki sharqona odob-axloq, har tomonlama kamol topgan ma'nan va jismonan yetuk insonlarni tushunamiz. Men ham hamisha ota-onam, ustozlarim ishonchini oqlashga harakat qilaman. 2007-yilda «Zulfiyaxonim izdoshlari» tanlovida faxrli ikkinchi o'rinni egalladim. Shu yili Toshkent shahrida maktablararo o'tkazilgan basketbol musobaqasida birinchi o'rinni oldik. Aminmanki, kelajakda qaysi sohani egallamay, kasbim faxrimga aylanadi.

Gulnoza RASULOVA, xorijiy filologiya guruhi o'quvchisi:

– Dizaynerlik kasbini mukammal o'rganishga ahd qildim. O'zbek milliy matolaridan zamonaviy liboslarni yaratib, butun dunyoga O'zbekistonni yaqindan tanitsam, deymen. Chet el podiumlarida o'zbek liboslari namoyishini o'tkazish va milliy matolarimizga bo'lgan qiziqishlarini orttirish mening katta orzuim. Bu orzu yo'lida albatta til bilish juda muhim. Shu sababdan ham men ushbu litseyda tahsil olmoqdaman.

Nozima UBAYDULLAYEVA, litsey bitiruvchisi:

– Akademik litseyini muvaffaqiyatli tamomladim. Buning uchun barcha ustozlarimga katta rahmat. Ular o'z bilim va tajribalari bilan bizni doimo qo'llab-quvvatladilar. Ayniqsa, turli loyihalar tayyorlashimizda bizning eng yaqin yordamchimiz bo'lishdi. «Mening litseyim – mening faxrim», «Mening qobiliyatlarim va kelgusidagi rejalarim», «Mening shaxsiy menajmentim» kabi loyihalarda ko'plab savollarga javob topganmiz.

Endi navbat bizga: olgan bilimimizni sinovdan o'tkazish vaqti keldi. Jahon tillari universitetiga hujjatlarimni topshirdim. Qalbimda biroz hayajon. Lekin talaba bo'lishimga ishonaman. Barcha tengdoshlarim ham o'zi istagan oliy o'quv yurtlariga kirib, talaba degan muqaddas nomga musharraf bo'lishlarini chin dildan istayman.



Bularning bari qo'l mehnati ekanligini bilgach, hayratim yanada ortdi

On olti yoshligim

Yoshlikni inson umrining bahoriga mengzaymiz.

Demak, o'smirtik davrini qishning sovuq kunlaridan so'ng iliq tafti bilan kishiga huzur baxsh etuvchi, bortiqli yashillikka burkab, qalblarga quvonch ulashuvchi erta bahorga qiyostasak, xato bo'lmasa kerak-a? O'smirtik davri haqida gap ketganida, so'nggi qo'ng'iroq tantanalari-yu litsey va kollejlarga kirish oldidagi hayajonlaringiz yodingizga tushib keldimi?

Xo'sh, mustaqil hayot bo'sag'asida turgan o'smirlarimiz shunday hayajonli damlarda qanday o'y-xayollar bilan bandlar?

Ular nimalarni his qilishyapti?



– Yodimda bor, bir yili tug'ilgan kunimda oyijonim chiroyli jemfer sovg'a qilgandilar. Uning ajabtovur to'qilishi, bo'rtib chiqqan chiroyli rango-rang gullari e'tiborimni tortdi. Bularning bari qo'l mehnati ekanligini bilgach, hayratim yanada ortdi. Shunda to'qishni o'rganishga ahd qildim.

Mana ikki yildirki, Shayxontohur tumani O'quvchilar texnik-ijodiyot markazi qoshidagi to'qish to'garagiga qatmayapman. Bu yerga kelganimda, oddiygina chokni to'qishni ham bilmasdim. Hozirgi kunda esa jemfer, ro'mol, balero, kofta va yubkalar, hatto turli o'yinchoqlar to'qishni ham o'rganib oldim. Ko'pchilik dugonalarim: «Muqaddas, shuncha narsani qanday to'qiysan, yuraging siqilib ketmaydimi?» – deb so'rashadi. Aksincha, to'qisam dam olaman, yangi-yangi uslublar topish yo'lida xayolan izlanaman, yangilik yaratishga intilaman. Ishlarim bilan ko'plab tanlovlarda qatnashyapman. Yaqin-

Muqaddas USMONOVA, poytaxtdagi 249-umumta'lim maktabining 9-«J» sinf bitiruvchisi:

da shahar texnik ijodiyoti markazida bo'lib o'tgan ko'rgazmada «Faxrli o'quvchi» nominatsiyasini qo'lga kiritdim.

To'garak rahbarimiz Ozoda opa Sharipova bizga to'qish

sirlarini o'rgatibgina qolmay, qalbimizda kasb-hunarga, mehnatga mehr uyg'otib kelyaptilar. Shuningdek, sabr-

toqatlilik, vazminlik kabi qiz bolaga xos bo'lgan fazilatlar, yurish-turish, kiyinish, muomala madaniyati xususida ham ko'p gapirib, bizni hayotga tayyorlab boradilar. Qo'limiz ishda-yu,

HAM HUNAR,
HAYOTNI
O'RGANAMIZ

qulog'imiz Ozoda opada bo'ladi. Ularning dono maslahatlarini bajon-u dil tinglaymiz. Ustoz o'g'itlari bizga kelajak hayotimizda, albatta asqotishiga aminman. Kelajakda ustozim kabi o'quvchilarga kasb-hunar sirlarini o'rgatmoqchiman.



Davron JO'RAYEV, Toshkentdagi 299-maktab bitiruvchisi:



– Shayxontohur tumani O'quvchilar texnik ijodiyot markazi maktabimizning ro'parasida joylashgan. Do'stim ikkimiz o'qituvchilarimiz tavsiyasi bilan ana shu markazga sayohatga bordik. Barcha to'garaklarni aylanib chiqdik. Bir xonada qizlar tikish-

bichish, to'qish bilan mashg'ul bo'lsalar, boshqa xonada biz tengi bolalar yog'och, naqsh o'ymakorligi sirlarini qunt bilan o'rganishayotgan ekan. Menga «Raketa modelchilik» to'garagi ma'qul bo'ldi va unga qatnay boshladim. Ikki yildan buyon, mazkur to'garakda shug'ullanib kelyapman. Do'stim esa qiziqishi

MEN
SAN'ATNI
TANLADIM

bo'lmagani bois, mashg'ulotlarga bir-ikki qatnab, kelmay qo'ydi.

To'garak rahbarimiz Abdunabi aka Xojiboyev juda mehribon, shu bilan birga, o'ta talabchan ustozlar. Bizga sabr-toqat bilan saboq beradilar, bilganlarini hech erinmay o'rgatadilar. Tanlov va musobaqalarda qatnashib, yutuqlarga erishsak, astoydil quvonadilar.

Toshkent shahar birinchiligi musobaqasining «Laylak va varrak» sinfida 2-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsam, yaqinda akademik Shavkat Vohidov sovrini uchun o'tkazilgan «Ulug'bek yulduzlari» musobaqasida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritib, ustozimni mamnun qildim.

Umumta'lim maktabini muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent madaniyat kollejiga o'qishga kirdim. Kelgusida aktyor bo'lishni, sevimli filmimiz «Shum bola»da

shum bola obrazini qoyilmaqom qilib yaratgan Abduraim Abdurahobovdek aktyor bo'lishni orzu qilaman. Markazda o'rganganlarim esa kundalik turmushimizda qo'l keladi. «Yigit kishiga yetmish hunar ham oz», degan naql bejiz aytilmagan-ku, axir!

Shahnoza AKRAMOVA,
Jahon tillari universiteti
qoshidagi 2-sonli akademik
litsey o'quvchisi:

TIL BILGANGA
MING
TANGA

– Til bilgan – el biladi, deganlaridek, chet tillarini bilish orqali o'zga xalqlar tarixi, madaniyati, turmush tarzini o'rganish mumkin.

Bolaligimdan chet tillariga qiziqaman. Ana shu havas ulg'ayganim sayin aniq maqsadga aйландi va mazkur bilim dargohi sari yetakladi. Nasib bo'lsa, O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetida tahsil olib, tarjimonlik kasbini egallamoqchiman. Chet elliklarga jonajon yurtimiz, milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, istiqloq yillarida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz haqida to'laqinlab gapirib bersam, deymen. Bu niyatimga, albatta erishaman. Zero, inson chin dildan xohlasa, ilojisiz narsaning o'zi yo'q.

Feruza JALILOVA yozib oldi

DARAXTLAR QO'SHIG'I

Ergash Majidov

BAG'ISHLOV

Ukajon, daraxt ham o'ylaydi,
Shod, g'amgin qo'shiqlar kuylaydi.
Ba'zida sen kabi, men kabi
Lof urib, maqtanib so'ylaydi.



GILOS

«Qizil munchoq» deyдилar,
Pishsam, sevib yeyдилar.
Payvand qilib odamlar
O'lkamizga yoyдилar.

OLXO'RI

Olxo'riman, olxo'ri,
Mevalarning bol, zo'ri.
Bir yeb ko'rsang, o'zing ham
Deysan: «Yana ol, xo'r-e!»



KO'KSULTON

Bolajonlar joniman,
Ko'k meva sultoniman.
Xomligimda yesangiz,
Vitaminning koniman.

OLCHA

Hech kim demas: «nodonman».
Men bol emas, nordonman.
Ishtahasi yo'qlarning
Ko'nglin ochib, shodonman.




JIYDA

«Jiy-jiy» lama, jiydaman,
Xushxo'r juda, foydaman.
Qalamchamni qadasang,
O'saman har joyda man.

O'RIK

Et – oshimda toshim bor,
Tosh ichida oshim bor.
Yuzimdan nur yog'ilar, –
Bag'rimda quyoshim bor.



TUT

Bog' ichra go'zali bir o'zim,
Eng avval pishaman, oq yuzim.
Shakardan shirinman, aylanay,
Tatib ko'r, yolg'onmas hech so'zim.



SHAFTOLI

Yeb, danagin tashlama
Yog'im ol, bosh qashlama.
Kuygan teri, astmaga
Ishlat, labing tishlama.

Taniqli shoir Ergash Majidov urgutlik ko'p qalamkashlarning ustosi. 1963-yilda Samarqand Davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagach, «Tong yulduzi», (avvalgi «Lenin uchquni») gazetasida adabiy zodim bo'lib ishladi. Keyinchalik o'z qishlog'idagi 66-maktabda o'qituvchilik qildi. Uning she'rlari tuman, viloyat, respublika gazeta va jurnallarida chiqib turadi.

Ergash Majidovning «Yuz bir chinor hikoyasi» nomli ilk kitobi 1972-yil chop etildi. Uning she'rlari «Osmondagi darvoza» (1974-yil), «Boyechehak» (1987-yil), «Bizning olam» (1988-yil) kabi jamoa to'plamlarida e'lon qilingan.

Ergash Majidov ko'p yillardan buyon mumtoz adabiyotimizning tuyuq janrida ijod etib keladi. Hatto «Darakh» gazetasi o'tkazgan «Tuyuqchilar bellashuvida» sovrinli 2-o'rin sohibi bo'ldi. Ayni kunlarda shoir minglab tuyuqlarni o'z ichiga olgan «O'lmas qo'shiq» nomli kitobini nashr ettirish harakatida.

K'O'ZACHALAR

(Ertak)

Kulol yasagan ko'zachalar kechasi o'zaro shivirlasha boshladi. Chunki kulolning butun badani olov bo'lib yonar, bir qultum suv tutishga yonida bir kishi yo'q edi. Ko'zachalar maslahatlashib, suv to'la katta mis qumg'onning yoniga keldilar. Qumg'onni turtib ko'rishdi, lekin undan sado chiqmadi. Qumg'on hech narsa bilmaganday va eshitmaganday jim turaverdi. Mis qumg'onni bozordan sotib olib kelishgan, kulolning qo'llarida bino bo'lmagan, balki shu sababdan u hech narsani his qilmayotgandir. Qumg'ondan umid qilish befoydaligini bilib, ko'zachalar hovlidagi quduqqa chiqdilar. Eng kichik ko'zachaning bo'yniga sim bog'lab, quduqdan suv tortib oldilar.

Eng katta ko'za yer tagidan chuvalchaglarni chaqirdi. Katta ko'zachaning iltimosi bilan chuvalchaglar birin-ketin kelib, kichik ko'zachadagi suvga tushdilar. Oddiygina suv isitma tushiradigan shifobaxsh suvga aylandi.

Ko'zachalar kulolga suv ichirdi, hammayog'ini suvlab, boshida parvona bo'ldilar. Birozdan so'ng kulol alahsirashdan to'xtab, o'ziga keldi. Ko'zini ochganida, ko'zachalarning yugurib-yelib yurganini ko'rdi. Ko'zlariga ishonmadi, tushmikan, deb o'yladi. Ko'zachalar yengil tin oldilar. Chuvalchaglar ham ko'zachalarga yordami tekkandan mamnun bo'lib, asta-sekin tarqala boshladilar.

Tong otganda, kulol qushdek yengil uyg'ondi. Kechagi issiqdan asar ham yo'q. O'tgan tunni esladi. Ko'zachalar

suv ichirdi, boshini, qo'l-oyoqlarini suvladi, atrofida aylandi. Yo tushmikan? Alahsiraganda, ko'zga nimalar ko'rinmaydi, deysiz? Birdaniga tomog'ida chuvalchangning ta'mini tuydi. Yoshligida issig'i ko'tarilsa, rahmatli onasi yer qazib, chuvalchang terib kelar edi. Chuvalchangni suvda qaynatib ichirsa, birpasda isitmasi tushib qolardi. Hozir tomog'ida xuddi o'sha ta'mni sezyapti. Nahotki yasagan ko'zachalari shunday qilolgan bo'lsa? Ishonmay ko'zachalarga qaradi. Tokchaga o'zi qanday tergan bo'lsa, shunday turibdi. Yoniga borib birma-bir ushlab ko'rdi. Hayrat bilan tikilib qaragan edi, ko'zachalarning lablari bilinar-bilinmas jilmayib qo'ydi.

Barno RUSTAMOVA

BEG'UBOR
BOLALIK

Bolalar shoiri,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi, Xalq
ta'limi a'lochisi, bolalarning
«Oltin toj» gazetasi
muharriri Otash
Xolmirezayev 70 yoshga
to'ldi. Hozirgacha uning
o'ttizdan ortiq kitoblari chop
etilgan.

Shoir Farg'ona xalq
dostonchiligi bo'yicha ilmiy
ishlar qilgan.

U bugungi kunda gazeta
muharriri, Chortoq tuman
«Chortoq haqiqati» gazetasi
qoshida tashkil etilgan
«Bo'ston» ijodkor yoshlar
to'garagiga rahbarlik
qilmoqda.

Biz ham gazetamiz
o'quvchilari nomidan
sevinli shoirimizga uzoq
umr, sihat-salomatlik va
ijodiy parvozlar tilaymiz.

SHABNAM

Shabnam qo'nib dalaga,
Tongda sochdi durini.
Quyosh chiqqach olamga,
To'kdi zumrad qo'rini.

Yiltiradi maysalar,
Taqib munchoq to'niga.
Bir zum o'tmay yo'qoldi,
Shabnam qurg'ur kuniga.

Hayratlanib do'stiga,
Savol berar Sotvoldi.
– Qani zumrad munchoqlar,
Aytgin, do'stim, kim oldi?!

ERKA BOLA

Salim juda erka bola,
Tinimi yo'q, serka bola.

Tegmaganga tegib o'tar,
Daraxt shoxin egib o'tar.

Suvga tashlar axlat-u loy,
Biror kishi demaydi «hoy».

O't-o'langa berar ozor,
U bor yerda bo'lar bozor.

Do'stiga do'stlik qilmaydi u,
Do'st qadrini bilmaydi u.

Kitob birla oshmo emas,
Kelajagin g'amin yemas.

Erka bo'lma, Salim o'g'lim,
Senga tushdi biroz ko'nglim.

O'qi hayot kitobini,
Angla Otash xitobini.



– 2005-yilda «Lochin» «Sho'rtangazkimyo» majmuasi tomonidan butunlay qayta ta'mirlandi. Oromgohimizda har mavsumda 650 nafar o'g'il-qiz hordiq chiqaradi, – deydi biz bilan suhbatda oromgoh boshlig'i Ismat aka To'raqulov. – Joriy yilda esa majmua rahbariyati bolajonlarga haqiqiy sovg'a tayyorladi. Misr ehromlari shaklida qurilgan «Piramida» va ulkan kema ko'rinishida qad ko'targan «Lochin» kemasi yotoqxonalarini ishga tushdi. Natijada bir mavsum 1000 nafar bolalarni sog'lomlashtirish imkonini tug'ildi.

Tan olish kerak, «Piramida» ham, «Lochin» kemasi ham oromgohning bir husniga o'n husn qo'shib turibdi.

To'garak xonalari, yotoqxo-

ERTAKLAR O'LKASIDA BIR KUN

«Sho'rtangazkimyo» majmuasiga qatashli «Lochin» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi Shahrisabz tumani, Mitoqi qishlog'ida joylashgan.



Oromgoh hovlisiga kizishingiz bilan o'zingizni bolalarning sehzeli diyoziqiga kelib qolgandek his qilasisiz.

nalarga yangi jihozlar keltirilgan.

– Dam olish maskanimizda o'ziga xos an'ana bor, – deya ta'kidlaydi bosh tarbiyachi Istam Hasanov. – Har yili yozgi mavsum

alohida nomlanib, mashg'ulot va tadbirlar shu mavzuga yo'naltiriladi. Masalan, 2008-yilda «Yulduzli yoz» mavsumini o'tkazdik. Bolalar koinot ola-

mi, astronomik bilimlar bilan imkon qadar tanishtirildi. 2009-yilda esa «Dengizchilar yozi» nomli tadbir o'tkazilib, unda bolajonlar uchun dengiz, kema, suv bilan bog'liq turli mashg'ulotlar o'tkazildi. Bu yil esa ularni «Barkamol avlod yili» munosabati bilan tadbirkorlik va ishbilarmonlik, biznes sohasiga jalb etyapmiz. Jahonning ba'zi mamlakatlarida iqtisodiy inqiroz davom etayotgan bir paytda biz yoshlarimizni biznes olami bilan yaqindan tanishtirmoqdamiz. Masalan, birinchi navbatimiz bank tizimiga bag'ishlansa, ikkinchisi neft va gaz sohasiga, uchinchi navbat shou-biznes hamda oxirgi to'rtinchi bosqich megapolis olamiga bog'liq tarzda o'tdi.

TARBIYACHILAR HAM SPORTCHI



larning suratlarini bilan bezatilgan. Ne ajabki, oromgoh hovlisida Italiyadagi Rim kolizeyi, Samarqanddagi Registon majmuasi, Shahrisabz faxri bo'lgan Oqsaroy greklarining qadimiy Arximideya saroyi maketlari savlat to'kib turadi.

Shu o'rinda «Lochin»dagi sport-sog'lomlashtirish ishlariga to'xtalmasak bo'lmas. Erta tongda dam oluvchilar, shuningdek, tarbiyachilardan tortib yetakchilargacha murabbiy Sergey Kolmakov boshchiligida badantariya mashqlarini bajaradilar.

– Bolalarning ko'p vaqtlarini sport maydonida o'tkazishlari, sport bilan shug'ullanishlari bizga ilhom bag'ishlaydi, – dedi Sergey Kolmakov. – 6 ta kichik, 5 ta katta suzish havzalarimiz bor. Eng so'nggi jihozlar bilan ta'minlangan basketbol, futbol va voleybol maydonlarimiz ko'plab musobaqalar o'tadi. Bolalar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash, bir-biriga hurmatni shakllantirishga intilamiz. O'yin davomida ularning maydondagi xatolarini tushuntiramiz, keyingi o'yinlarda ular buni takrorlashmaydi. Bizda «Sevinch»ning qizlari, «Nasaf» futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilari ham hordiq chiqarishadi.

Oromgohni aylanishda davom etamiz: yo'laklarning ikki tomoni buyuk siymo-

– Oromgohimizda dunyoning yetti mo'jizasini jamlamoqchimiz, – e'tirof etdi Ismat aka. – Kelgusi mavsumda Hindistondagi Toj mahal, Fransiyadagi Eyfel minorasi maketlarini bolajonlarga sovg'a qilmoqchimiz.

Ma'naviyat va ma'rifat xonasiga kiramiz.

Turli adabiyotlar bolalar ixtiyorida. «Oltin qo'llar» to'garagi a'zolari yasagan o'yinchoqlar, ertak qahramonlarining oddiy xamirdan, guruchdan yoxud somondan tayyorlanganiga sira ishingingiz kelmaydi. Ammo bu haqiqat!

YOZNI

«Lochin»ning o'z studiyasi bor. Har navbat yakunida o'g'il-qizlarga dam olish jarayonlari muhrlangan DVD diskleri esdalik uchun topshiriladi.

– Oromgohimizda kam ta'minlangan oila bolalari, hatto xorijliklar ham dam olishadi. Ular bolalarga ko'rsatilayotgan beqiyos g'amxo'rliklarni ko'rib hayratlanishadi.

Omon TO'XTAYEV, Qamashidagi «Mehribonlik uyi» tarbiyalanuvchisi:

– Har yili «Lochin»da dam olaman. Ajoyib ob-havo tufayli yozning issig'ini sezmaymiz. Futbolga qiziqaman. O'tgan yili mavsumda oromgoh turnirida g'olib chiqqandik.

Aziza TOSHQULOVA, Koson tumani:
– Bizni yangi qurilgan «Piramida» majmuasiga joylashtirishdi. Go'yo, ertaklar olamida sayohatdamiz...

Izzatoy YUSUPOVA:
– O'g'lim Boburjon Nurmatov shu



SOG'INGANDA...

bolalarini olib kelgan ota-onalar juda mamnun bo'lishyapti.

Shuhrat UVATOV,
«Sho'rtangaz» majmuasi kasaba uyushma qo'mita raisi

Yoz o'tmoqda soz!

TO'P SURMAYMAN

Futbolni sal biluvchi
Tushunar, deb turibman.
Bugun ham hal qiluvchi,
Golni o'zim uribman.

Qiyin, ko'ngil to'lmasa,
Bas, yashirib yurmayman:
– Sardoringiz bo'lmasam,
Guruhda to'p surmayman.

Zafar ISOMIDDIN,
bolalar shoiri



Osimxon VOSIXONOV chizgan rasm

YOZGI TATIL - YILGA TATIR

Yozning eng qizigan pallasida tog' qo'yniga
sayohat qilishning o'zgacha gashti boz.

Chorvoq suv ombori poytaxt va uning atrofidagi aholini bebaho ichimlik suvi bilan ta'minlabgina qolmay, balki yetarli darajada beminat elektr energiyasini

va Farhodlar bilan tog'lar bag'riga ko'tarilishdi, sharsharani tomosha qilishdi. Kiyik o'ti, limon o'ti, choy o'tlardan terib kelishib, o'yilariga shifobaxsh choy damlab berishdi. Birgalashib soy bo'yidagi soya-salqin

TOG'LAR QO'YNIGA SAYOHAT

O'g'lim Nurislom bilan tong saharda tog' qo'yniga otlandik. Yo'llar ham tekis, ravn. Mashinalar ko'p bo'lishiga qaramasdan, emin-erkin yo'l yurayapmiz. Chanqovbosdi ichimliklar, muzdek ayron, go'ja, qimiz, o'rik sharbati hamma-hammasi muhayyo. Toshkent viloyatining Chirchiq shahri, Bo'stonliq tumanining bir-biridan go'zal qishloqlari, G'azalkent shahri, Xo'jakent ham birpasda ortda qoldi. Birozdan so'ng, ko'z o'ngimizda ulkan suv havzasi

ham yetkazib beradi. Tosh tuproqli uzunligi 768 metr, balandligi 168 metрни tashkil etuvchi to'g'onga o'rnatilgan GES yiliga 2470,1 mln.kVT-soat elektr energiyasini ishlab chiqarmoqda.


Suv omborining tepasida Tyan-Shan tog'larining qorli baland cho'qqilari ko'zga yaqqol tashlanadi. Tog'ning yon bag'ridagi archazorlar, tabiiy dorivor g'iyohlar, musaffo havo va buloqlar, sharsharalar - hamma-hammasi betakror go'zallik timsolidir.

Go'zal suv ombori atrofidagi Sijjak, Nanay, Yangiqo'rg'on kabi qishloqlar bog'larida yetishtirilgan olma, o'rik, gilos, nok, shaftoli-larni yemabsiz, dunyoga kelmabsiz. Ayniqsa, yong'oq, pista va bodomlarning ta'mi, quvvati o'zgacha. Tog' qo'ynidagi echkinning suti koni foyda. Sigir suti va qatig'i, qimzning o'rni boshqacha.

Yangiqo'rg'on qishlog'idagi yagona bilim maskani - maktab direktori Ahmadjon Isamov bilan bir zum suhbatlashsangiz, bu joylarning qadimiyligiga to'la ishonch hosil qilasiz. Bir zamonlar xitoylar qazigan tog' konlari qoldiqlari bu zaminning boyligi behisobligidan hamon darak berib turibdi.

Qishloqdagi bolalar oromgohi - eng fayzli va go'zal maskanlardan biri. Bu yerda har yili minglab poytaxtlik, Xorazm va Qoraqalpog'istondan kelgan o'g'il-qizlar miriqib dam oladi. Bolalarning sog'liqlarini to'la tiklashlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan.

Nurislom ikki kun mobaynida shu yerda orttirgan do'stlari - Sardor, Anvar



o'tloqda «Tong yulduzi» gazetasi, «Gulxan», «G'uncha» jurnalining yangi sonlarini mutolaa qilishdi. Ingliz tilida bir-birlari bilan savol-javob qilib, badminton o'ynashdi.

Oilamiz bilan tog' qo'ynida o'tgan ikki dam olish kunlari shunday tarovatli o'tdi. Bunday rohatbaxsh kunlarni bizga in'om etgan Ollohga hamdu sanolar bildirib, uyimizga qaytdik. Tog'lar esa bizning yana ko'p bor kelishimizni bilganday sukut saqlab xayrlashdi.

Jabbor RAZZOQOV



Chorvoq suv ombori gavdalandi.

O'g'limga qurilishiga o'zim guvoh bo'lgan ulkan suv ombori haqida, tog'lar, tabiatning bebaho ne'matlari - turli-tuman gullar, archa, pista, bodom, yong'oqlar haqida so'zlayman.

Bundan qirq yetti yil muqaddam boshlanib, o'tgan asrning 70-yillarida qurilishi tugallangan bu suv omborining ahamiyati haqida bolalarga so'zlashning o'zi gashtli. Hayot manbai, bebaho xazina, tuman boyligi bo'lgan bu suv havzasining qadr-qimmatini hech bir narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. Chotqol va Ugom tog'lari orasiga qurilgan Chorvoq suv ombori suv yuzasi sathi 40, 1 km.²ga teng bo'lib, ayrim joylarining eni 10 km.ni tashkil etadi. Uzunligi 19 km. bo'lgan suv omborining eng chuqur joyi 134 metrga yetadi. Suv omboriga Piskom, Ko'ksuv, Chotqol daryolari tinimsiz quyiladi.



ATIRGULIM

Gulzordagi gullarim ichra,
Atirgulim - chiroyli gulim.
Barcha guldan a'losan o'zing,
Senga boqsam yayraydi dilim.

Sen go'zallik muhabbat ramzi,
Atirgulim, sen go'zal gulim.

Qancha boqsam, shuncha yashnaysan,
Parvarishlab charchamas qo'lim.

Jo'rabek OTAQULOV,
Arnasoy tumanidagi
20-maktabning
6-«A» sinf o'quvchisi

MUSAFFO OSMON
YARASHLAR

Uying obod bo'lsa, mahallang obod,
Qaldirg'ochlar kelsa, qalbing bo'lar shod.

Pok yurtida pokdomon insonlar yashar,
Yurtimga musaffo osmon yarashar.

Senda yashayotgan xalqingdir inoq,
Qo'ygin, ishla tez, bo'lma erinchoq.

Mevalar g'arq pishib turibdi-ku, oh,
Ona Vatanim bu O'zbekistondir.

Farangiz MUSURMONOVA,
Arnasoy tumanidagi 20-maktabning
o'quvchisi

Yusupova Xilola Adhamovnaga
Shayxontohur tumani
20-maktab tomonidan 1999-yilda
berilgan
A - 422118 raqamli attestat
yo'qolganligi munosabati bilan bekor
qilinadi.



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy.
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 34709
Buyurtma N: J 9793